

O'ZBEKİSTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

2022 Vol. 3

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-922X

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN:

LANGUAGE AND CULTURE

2022 Vol. 3

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir:

Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o'rinnbosari:

Nodirbek Jo'raqo'ziyev

Mas'ul kotib:

Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboyev, Samixon Ashirboyev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Baxtiyor Mengliyev, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, G'aybulla Boboyorov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov.

Tahrir hay'ati

Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Maria Sabtelnii (Kanada)
Frederik Bressand (Fransiya)	Timur Kocaoğlu (AQSH)
Ingeborg Baldauf (Germaniya)	Almaz Ülvi (Ozarbayjon)
Mark Toutant (Fransiya)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Rochelle Almeida (AQSH)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Emek Üşenmez (Turkiya)
Valeri S. Xan (O'zbekiston)	Abdulvahap Kara (Turkiya)
Eunkyung Oh (Janubiy Koreya)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Qoilxon Ibrohimov (O'zbekiston)	Dilorom Ashurova (O'zbekiston)
Shodmon Vohidov (Tojikiston)	Darya Jigulskaya (Rossiya)

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiylar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Shuhrat Sirojiddinov

Deputy Editor in Chief: Nodirbek Jurakuziev

Executive secretary: Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboev, Samixon Ashirboev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Bakhtiyor Mengliev, Uzoq Juraqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, Gaybulla Babayarov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov.

Editorial Committee

Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Maria Subtelny (Canada)
Frederique Bressand (France)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ingeborg Baldauf (Germany)	Almaz Ulvi (Azerbaijan)
Marc Toutant (France)	Tanju Seyhan (Turkey)
Rochelle Almeida (USA)	Hisao Komatsu (Japan)
Akram Habibullaev (USA)	Emek Üşenmez (Turkey)
Valeriy S. Khan (Uzbekistan)	Abdulvahap Kara (Turkey)
Eunkyung Oh (South Korea)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Oqilkhon Ibrohimov (Uzbekistan)	Dilorom Ashurova (Uzbekistan)
Shodmon Vohidov (Tajikistan)	Daria Zhigulskaya (Russia)

"Uzbekistan: Language and Culture" is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

To'lqin Tog'ayev

XX asrning 20-30-yillarida O'zbekistonda til va yozuv siyosati.....6

Murodqosim Abdiyev

Soha terminlari izohli lug'atlarini tuzishga doir mulohazalar.....23

Mardon Rahmatov

Alisher Navoiyning lirik asarlarida takrirlarning
sintaktik-semantik xususiyatlari.....36

Abdumannon Hasanov

Lakuna – til va madaniyatning mushtarak muammosi.....50

Muhammadsolih Tursunov

"Alpomish" dostoni matnlarining alfavit va chastotali
lug'atlari hamda statistik tahlili.....61

Gulnoraxon Niyazova

Jahon tilshunosligida detektiv asarlarning lingvistik
aspektda o'rganilish davrlari.....76

Adabiyotshunoslik. Tarjimashunoslik

Zaynabidin Abdirashidov

"Shimol shamoli" yoki Buxoroning uyg'onishi:
Istanbuldan bir nazar.....87

Gulbahor Ashurova

Tarixiy shaxs tasvirida tarixiy fakt va talqin muammosi.....112

CONTENT

Linguistics

Tulqin Togaev

Language and writing policy in Uzbekistan during the period 20s-30s of the 20 th century.....	6
---	---

Murodqasim Abdiev

Some notes on the compilation of explanatory dictionaries of field terms.....	25
--	----

Mardon Rahmatov

The syntactic-semantic features of takrirs in the lyrical works of Alisher Navoi.....	36
--	----

Abdumannon Hasanov

Lacuna as a common problem of language and culture.....	50
---	----

Muhammadsolihi Tursunov

Alphabetical and frequency dictionaries and statistical analyzes of "Alpomish" epic texts.....	61
---	----

Gulnorakhon Niyazova

Periods of study of detective works in linguistic aspect in world linguistics.....	76
---	----

Literature. Translation studies

Zaynabidin Abdirashidov

"North wind" or the Awakening of Bukhara: a view from Istanbul.....	87
---	----

Gulbahor Ashurova

Problem of historical facts and interpretation in the portrait of a historical person.....	112
---	-----

Soha terminlari izohli lug‘atlarini tuzishga doir mulohazalar

Murodqosim Abdiyev¹

Abstrakt

Ma'lumki, hozirgi paytda, dunyo miqyosida globalizatsiya hamda integralizatsiya jarayonlari avj olgan bir paytda soha terminologiyasi yanada boyib borishi tabiyi. Bu jarayon asosan zamonaviy texnika va axborot texnologiyalarning jamiyat hayotiga dadil kirib kelishi bilan chambarchas bog'liqdir. Bu holat barcha tillar qatori o'zbek tili terminologiyasini ham chetlab o'tgani yo'q. Mustaqillikdan keyin mamlakatimiz taraqqiyotidagi tub burilishlar o'zbek tili lug‘at boyligini yangi so'z va terminlar bilan boyitish imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Sanoatning muhim tar mög'i bo'lgan kimyo fani va uning tarmoqlarida ham terminologik qatlam kun sayin ortib bormoqda. Maqolada soha, xususan, kimyo terminlari izohli lug‘atini tuzish jarayonida e'tibor beriladigan tomonlar haqida mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'z: *lug‘at, lug‘at tuzish, termin, terminologiya, soha, til korpusi, tarjima, milliylik, jarayon, o'zlashma termin, texnik vosita.*

Kirish

Jahon tilshunosligining diqqat markazida turli xil mavzular bilan birga terminologiya masalalari ham turadi. Zamonaviy fanlar yanada keng ma'no kasb etgan va chuqurroq o'rganilayotgan bir paytda ularga xos maxsus "terminologiya"ni topish mushkul vazifalardan biri hisoblanadi. "Terminologiya – maxsus leksikani o'rGANUVchi fan bo'lib, terminlarning kelib chiqishi, shakli, ma'nosи, vazifasi va qo'llanilishi kabilarni o'z ichiga qamrab oladi. Terminologiya zamonaviy lingvistik tadqiqotlarning eng faol yo'naliishlaridan biridir. Hozirgi vaqtda terminologiya masalasining o'sib borishi, bir tomonidan, ilm-fanning dinamik rivojlanishi tufayli yangi tushunchalarning ko'payib borishi sababli deb qaralsa, ik-

¹Abdiyev Murodqosim Bolbekovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti.

E-pochta: muradkasimabdiyev@gmail.com

ORCID ID: 0009-0009-6470-4545

Iqtibos uchun: Abdiyev, M. B. 2022. "Soha terminlarining izohli lug‘atlarini tuzishga doir mulohazalar". *O'zbekiston: til va madaniyat* 3: 23–35.

kinchi tomondan, terminlarning shakllanish jarayoni, rivojlanishi va funksiyasi kabi masalalarning yetarli darajada o'rganilmaganligi bilan bog'liq hodisa deb izohlanadi” [Ким 2009, 23].

Til, tafakkur va madaniyat bir-biri bilan shu qadar zich bog'langanki, amalda ayni uch unsurdan tarkib topgan yaxlit butunlikni tashkil qiladi, ularning birontasi boshqa ikkitasisiz yashay olmaydi. Ularning barchasi birgalikda real olam bilan munosabatda turadi, shu olamga zidlanadi, unga bog'liq bo'ladi, uni aks ettiradi va ayni paytda uni shakllantiradi”. Bugungi kunda ko'p qo'llaniladigan “milliy ong”, “milliy tafakkur”, “milliy madaniyat”, “milliy ma'nnaviyat”, “milliy mentalitet” so'zlari ham ma'lum darajada tilshunoslik bo'yicha olib boriladigan tadqiqotlar maydoniga kirib keldi. Bu tushunchalar anglatgan ma'nolar tilimizdag'i mavjud birliklar vositasida ongimizda muhrlanadi va nutqiy vaziyatga bog'liq holda kishilarning nutq orqali amalga oshadigan aloqalarida o'z aksini topadi. Til – madaniyat yaratish, ijod qilishning eng asosiy vositalaridan biridir. U madaniyatga erishish, uni tushunish, uning sohalarida muloqot qilish, rivojini oldindan aytib berish vositasidir. Madaniyat til rivojlanishiga ta'sir qilsa ham u til ichki rivojlanishing asosiy vositasi va quroli emas. O'zining universalligi va tabiatiga ko'ra til madaniyat bilan o'zaro solishtirildigan hodisalar emas. Til va madaniyatni yaratuvchi va rivojlantiruvchi ijodkor kuch xalq va jamiyatdir.

Terminologiya muammolari

XVIII-XIX asrlarda terminologiya muammolari tilshunoslarning diqqat markazida bo'ldi. Buning asosiy sabablaridan biri esa leksemalarning yaratilishi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi sababi ekstralingvistik omillarning terminologiyaga ta'siridir. Ammo ularni terminologiyada sinonimiya va polisemiya muammolari, leksema-leksemalar, sohaga oid leksemalar, gibrild leksemalar va sof leksemalarning kontekstdagi paradigmatic, sintagmatik munosabatlari, muayyan tushunchalar bilan o'zaro aloqalarning xilma-xilligi ko'proq o'ylantirgan. Barcha tilshunoslik madaniy-tarixiy mazmun bilan yo'g'rilgan, chunki uning predmeti madaniyatning sharti, asosi va mahsuli bo'lgan tilga ega. O'z navbatida madaniyat kommunikativ-yaxlit, qimmatli va ramziy xususiyatga ega, chunki til faqat uni to'liq ko'rinishida emas, unda mavjud va rivojlanadi va uni namoyon etish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Zero, bizga ma'lumki, xalq madaniyatining barcha nozikliklari uning o'ziga xos va betakror bo'lgan tilida aks etadi, chunki u dunyonи va undagi insonni turli yo'llar bilan

tuzatadi. Hozirgi zamon tilshunosligida lisoniy shaxsni o'rganishga ko'plab yondashuvlar mavjud. Bu tushunchalar insonni ona tili sifatida anglatadi, uning nutq faoliyatidagi qobiliyati jihatidan ajralib turadi.

Hozirgi kunda odamlarning dunyoni o'z tili prizmasi orqali idrok etishi haqidagi tezis lingvistik tadqiqotlarda tub o'zgarishlar ro'y bermoqda. Til va uni gapiradigan cheklangan madaniyat aniq munosabatlarga ega emas. Til aslida milliy-madaniy xarakterni yuzaga keltiruvchi muhim omil bo'lib tuyulmaydi, balki uni aniqlash va mustahkamlash vositasidagina harakat qiladi. Til – millatning ma'naviy boyligidir. Til nafaqat muomala vositasi, balki xalqning madaniyati, urf-odati, uning turmush tarzi, tarixidir. Tilni asrash, rivojlanirish – millatning yuksalishi demakdir. Til birligi bo'lgan leksema fonema va morfema kabi til birliklaridan, umumiylikdan til va nutq dialektikasida o'ziga xos voqelanishi, muayyan belgi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Uning o'ziga xosligi shundaki, u ham til birligi, ham nutq birligi bo'la olishi, shunga ko'ra murakkabligi bilan xarakterlanadi. Ushbu lisoniy hodisa til birligi sifatida leksema-umumiyo bo'lsa, ammo nutq birligi sifatida esa u so'zdir, xususiydir. Muayyan birlik bo'lgan so'z (leksema) ikki planli belgi sifatida tovush va ma'no, ifoda va mazmun tomonlarining dialektik bog'liqligidan iborat bo'lib, nominativ birlik holatida ijtimoiy vazifa bajaradi. So'z (leksema) muayyan birliklar ichida ham shaklan, ham mazmunan – sifat jihatdan mukammal bo'lib, tilning ijtimoiy vazifa bajarishda semantik-funksional yetakchilik qiladi, qudratli vosita – mikrosistema hisoblanadi.

O'zbek tili terminologiyasi bir necha asrlik shakllanish va taraqqiy etish bosqichlarini bosib o'tdi. Qadimda yurtimizda ajdodlarimiz tomonidan juda ko'plab lug'atlar tuzilgan. Bu ish qomusiy olim Mahmud Koshg'ariy tomonidan "Devonu lug'otit turk"ni tuzish bilan boshlab berilgan. Mahmud Zamaxshariy "Muqaddimatul lug'at", Alisher Navoiy "Sab'atul abhur" singari bir qator lug'atlarini tuzishgan. Bu an'ana hozirgi kungacha ma'lum davom etib keldi, hisob.

O'tgan asrning boshlarida dastlab arabcha kimyo terminlari ruscha bilan almashtirildi: homiz – kislota, mu'oyana – analiz, humz – oksid, moyin muqattar – distillangan suv kabilar. Keyinchalik 30-yillarda jadidlar tomonidan kishilik jamiyati barcha sohalari, jumladan, kimyo faniga doir terminlarni o'zbekchalashtirishga harakat bo'ldi. Masalan, vodorod – suvchil, kislorod – achchil, xlorid kislota – tuz achiliq tarzida almashtirilish uchun tavsiyalar ishlab

chiqildi. Ammo yalpi qatog'onlar boshlanib, bu ibratli ishlar chala qolib ketdi.

Bu jarayon XX asrning oxirlariga kelib bir oz susaydi. Buning sababini jamiyatda rus va boshqa tillarning ma'lum darajada gegemonligi bilan izohlash mumkin Bu bosqichlarda o'zbek terminologiyasi nafaqat o'z ichki imkoniyatlari, shuningdek, qarindosh bo'lмаган tillar boyliklaridan o'rni bilan foydalangan holda rivojlanish yo'lida davom etdi.

O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridanoq ma'naviy-ma'rifiy islohotlar, ma'naviy kamolot tarbiyasi masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'naliishlaridan biriga aylandi. Ma'naviyat tushunchasining asosida turuvchi ona tili va uni har tomonlama rivojlantirishga bo'lgan doimiy e'tibor benihoya kuchaydi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgанинг о'tтиз yillигига bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan tarixiy nutqida shunday degan edi: "Globallashuv sharoitida milliy tilimizning sofligini saqlash, uning lug'at boyligini oshirish, turli sohalarda zamonaviy terminlarning o'zbekcha muqobilini yaratish, ularning bir xil qo'llanishini ta'minlash dolzarb vazifa bo'lib turibdi...". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish, chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-son, 2020-yil 20-oktabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-son Farmonlari; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrdagi "Davlat tilini rivojlantirish departamenti to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 984-son qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar ijrosini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilib, ularda belgilangan buyuk ajdodlarimizning boy merosi ona tilimizning davlat tili sifatidagi mavqeい va nufuzini oshirish, ijtimoiy sohalarga to'laqonli joriy etilishini ta'minlashga xizmat qilishi singari vazifalarni amalga oshirishda kimyo terminlari izohli lug'atini tuzish muayyan daraja-da xizmat qiladi.

Mamlakat industriyasining asosiy bo'g'ini bo'lgan kimyo sanoti terminlarni tartibga solish masalasi ham bugun kunda o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Aytish mumkinki, boshqa sohalar kabi kimyonи ham uning terminlarisiz ilmiy tadqiqot ishlari olib borish, uni rivojlantirish, ayniqsa, ta'lim sohasida joriy etish juda mushkuldir. Shu boisdan ham soha terminlarining jamiyatimizda tutgan o'rni beqiyos.

O'zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqeい va nufuzini oshirish borasida bugungi kunda yechimini kutayotgan qator dolzarb muammolar mavjud. Jumladan, sohalarga oid terminlarni qo'llashdagi har xilliklar, xususan, kimyo terminlarini qo'llashdagi chalkashliklarni bartaraf etish sohaning yagona terminlar tizimi asosida shakllangan izohli lug'atlar tuzish va ulardan foydalanishning zamonaviy va qulay usullarini ishlab chiqish kechiktirib bo'lmaydigan vazifalardan biridir.

Ayni paytda jamiyat hayotining shiddat bilan taraqqiy etishi o'zbek terminologiyasi til lug'at tarkibining boyishi va takomillashuviga olib kelmoqda. Terminga xos belgilardan biri - uning izohi va ta'rifiga oydinlik kiritish, terminning ma'noviy qurshovida mavjud qo'shimcha semalarni yuzaga chiqarish ilm-fan tilining rivojlanishida, o'zga sohaga oid terminologik tizimlar tarkibida yaqqol seziladi. Bugungi o'zbek terminologiyasida ham o'z qatlamining salmoqli o'rni qatori o'zlashmalarning ham sezilarli mavqeyi saqlanib qolmoqda. "O'zlashmalarning til terminologiyasi boyishidagi o'rnini birgina internet terminlari misolida ko'rish mumkin. Olib borilgan izlanishlar o'zbek tili internet terminologiyasining 54 %ini o'zlashmalar, chunonchi, rus tilidan o'zlashgan internet terminlari 31 %, ingliz tilidan aynan o'zlashgan baynalmilal internet terminlari 23 %ni tashkil etishini ko'rsatgan" [Dadaboyev 2019, 15].

Fanlarning tabiatiga va o'rganish metodlariga mos ravishda maxsus terminlar tanlanadi. Bunday terminlar ilmiy izlanishlarning o'ta muhim qismi bo'lib, tadqiqot uchun katta ahamiyatga ega. Chunki terminlar ilm-fanning, texnika, sanoat va boshqa turli sohalarning taraqqiy etishi, rivojlanishiga asos bo'ladi. Har qanday fan doirasida unga oid ilmiy terminlarning o'rni, albatta, beqiyos. Kimyo sohasida ham terminlar doimo diqqat markazda turuvchi omillardandir. Aynan hozirgi paytda, zamonaviy kimyo sanoati terminologiyasi masalasi ham o'ta dolzarb hisoblanadi. Bu jarayonning dolzarbliji, bir tomondan, bu fanning dinamik rivojlanishi tufayli yangi tushunchalarning ko'payib borayotganligi sababli deb qaralsa, ikkinchi tomondan, terminlarning shakllanish jarayoni, rivojlanishi va vazifikasi kabi masalalarining yetarli darajada o'rganilmaganligi bilan bog'liq, deb ham izohlanadi. Terminlar so'z boyligining ancha katta qismini tashkil etadi. Uning juda tez rivojlanishi ham bejiz emas. Chunki u yangi so'zlar yasalishi doirasida iste'molda ko'payib boradi. Tilning terminologiyasi ko'plab terminlar tizimidan tashkil topadi. Har qanday rivojlanayotgan soha borki, unda, albatta, yangi terminlar tanlanishi, paydo bo'lishi, kirib kelishi tabiiy hol. Til

lug'ati tarkibini ham turli-tuman terminlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ushbu ehtiyojlarni qondirish masadida lug'atlar tuzilishi o'ta muhim hisoblanadi.

Kundalik nutq jarayonda so'zning lug'aviy ma'nosining o'rni muhimdir. Bu esa har bir mutaxassisning soha ternimologiyasi dan xabardor bo'lishni va terminlarni o'z o'rnida ishlatishni taqozzo etadi. Bu talabni qondirish uchun lug'atga ehtiyoj paydo bo'ladi. "Lug'at jami bilimlar majmui hisoblanadi. Unda inson so'z boyligi jamlangan bo'ladi. Lug'at orqali kishilarning fikri aniqlashadi, nutqi to'g'rilanadi va obrazliligi ta'minlanadi. Lug'at ustida ishlashdan maqsad – so'z yoki termin ma'nosi, imlosi, etimologiyasi, talaffuzi, tarjimasi singarilar aniqlashtiriladi va ular haqida ma'lumotga ega bo'lishdan iborat" [Абдиев 2014, 45].

Fransuz yozuvchisi A. Frans Volterning "Fransuz tili aforizmlari lug'ati"dagi so'zlarning alfavit tartibida tuzilmalar majmuidan iborat ekanligi haqida shunday degan edi: "Tasavvur qiling, lug'atlarda dono xalqning ming – ikki ming yillik o'tmis avlodlaridan qolgan yodgorlik tarzida yetib kelgan so'zlar yozilgan bo'ladi. Har bir so'zning lug'aviy ma'nosida insonning dard-u quvonchini ifodalovchi son-sanoqsiz fikr va tuyg'ularda insoniyat hamda Vatanimizga oid ijodiy fikrlar mujassamlashtirilgan bo'ladi" [Вольтер 1974, 14].

Haqiqatan, lug'at – bu inson hayoti quvonch va tashvishlarini o'zida jamlagan tarixiy qissa. Unga kiritilgan har bir so'z hayat bilan, xalqning ijodiy faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir.

Ilmiy adabiyotlarni o'qiganimizda, gazetalarni ko'zdan kechirganimizda, hatto badiiy asarlar mutolaa qilganimizda, qo'llanish doirasi chegaralangan leksikaga oid tushunarsiz va ma'nosi noma'lum bo'lgan so'z va terminlarga duch kelamiz. Bunday so'zlar tor sohada qo'llanadigan – fan, kasb-hunar, maishiy, dialektal yoki jargon va argolarga oid ilmiy termin yoki maxsus so'zlardan iborat bo'lishi mumkin. Albatta, bunday so'zlarning o'ziga xos spetsifikasiyasi, yasalishi, grammatik, semantik, orfoepik, orfografik singari xususiyatlari ularning nazariy va amaliy qimmatini oshirishga xizmat qilishi shubhasizdir.

Shu paytgacha mazmunan va shaklan turli-tuman bo'lgan lug'atlar til tizimini tartibga solishga xizmat qilib kelgan. Bugungi kunda mamlakatimizda o'zbek tilining milliy til korpusini yaratilishiga bo'layotgan harakatlar ma'lum ma'noda o'zbek tilidan foydalanish imkoniyatini oshirish, milliy terminologiyani, xususan, kimyo texnologiyasi, farmasevtika singari sohalarning jadal rivojlanishi bois ularga oid terminlarning qo'llanishidagi har xilliklarni

bartaraf etgan holda ma'lum bir qolipga solingen muqobil variantlarini yaratish imkoniyatlarni vujudga keltirish mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy omillaridan biridir.

"Kimyo terminlarining izohli lug'ati"ni yaratish muammolari

Tuzilishi mo'ljallanayotgan "Kimyo terminlarining izohli lug'ati"da kimyo texnologiyasi, farmatsevtika terminologiyalarida qo'llanayotgan terminlarni qo'llashdagi chalkashliklar va noaniqliklar bartaraf etiladi, ular unifikatsiya qilinadi, terminlarni bir xil shaklda qo'llashlari uchun yagona standartlashgan qolipi yuzaga keltiriladi hamda mazkur sohalardagi huquqiy-me'yoriy hujjatlar, kasb standartlari, texnik reglamentlar, yo'riqnomalar, ko'rsatmalar va boshqa hujjatlarni davlat tilida sifatli ishlab chiqilishini ta'minlab, soada yagona terminologik tizim yaratilishi imkoniyati vujudga keltiriladi.

Lug'at tuzilishi bilan o'zbek tilining kimyo terminologiyasidagi chalkashlik va noo'rin qo'llanishlar bartaraf etiladi va tartibga solinadi, ularning yagona milliy tizimi yaratiladi. Lug'at tuzish davomida soha va uning yo'nalishlariga doir ish yuritish terminologiyasi shakllantiriladi va barcha tashkilotlarda bir xil tamoyilga asoslangan imlo va terminlarning qo'llanishi bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Terminlarning yagona variantini taklif etish va amaliyotga kiritish orqali kimyo, farmasevtika va kimyo texnologiyalari sohasidagi huquqiy-me'yoriy hujjatlar, kasb standartlari, texnik reglamentlar, yo'riqnomalar, ko'rsatmalar va boshqa hujjatlarni davlat tilida sifatli ishlab chiqilishi va imlosi ta'minlanishi lozim bo'ladi.

Fandagi har qanday rivojlanish, taraqqiyot ilmiy terminlarning yuzaga chiqishi yoki oydinlashishidan darak beradi. Xuddi shuningdek, o'zbek terminologiyasi tizimi ham bundan mustasno emas. Adabiy tilning so'z boyligi o'z tarkibiga maxsus tushunchalar ni ifodalovchi terminologik leksikani u yoki bu darajada qamrab olishi lingvistikada e'tirof etilgan voqelik hisoblanadi. Umumiste'mol so'zlaridan farqli ravishda doim maxsus tushunchalarni anglatish, ifodalash uchun xizmat qilishga yo'naltirilgan terminlar o'zbek adabiy tilining tarixiy shakllanishi va taraqqiyoti bosqichlari zaminida tarkib topib, takomillashib bormoqda.

Har bir fan sohasining rivojlanish va takomillashuv darajasi shu soha terminologiyasining qay darajada taraqqiy etganligi, shuningdek, tartibga solingenligi kabi belgilar bilan ham uzviy bog'liqidir. Chunki ilmiy adabiyotda qo'llanadigan termin yoki uning ifo-

da shakli aniq va ravshan bo'lmas ekan, unda, albatta, chalkashlik, noaniqlik kabi salbiy holatlar saqlanib qolaveradi. Shu bois, V.P.Danilenko ta'kidlaganidek, har bir fan yoki sohaning taraqqiyot ko'r-satkichi shu soha terminologiyasining "qat'iy ilmiy terminologiya"ga ega ekanligi bilan ham belgilanadi. V.P.Danilyenko bu yerda "qat'iy ilmiy terminologiya" tushunchasini biron bir sohaviy terminologiyaning mazkur fan sohasi taraqqiyoti bilan uyg'unlashuvi, sohaviy terminologiyaning ayni sohaga oid tushunchalarni ifodalashdagi hamohangligi, yaratilgan va muomalada bo'lib turgan terminologiyaning muayyan fan tili bilan mos kelishi kabi holatlarni nazarda tutadi [Даниленко 1977, 157].

Terminlarning "aniqligi va qat'iy lashishi shu millatning fani, maorifi, madaniyati darajasini ko'rsatadi. Atamalarning rivojlanishi, tartibga solinishi fanning har xil sohalarida turlicha bo'lib, ma'lum fanning taraqqiyotiga bog'liq. Bu taraqqiyot to'xtovsiz bo'lgani uchun yangi atamalarning kelib chiqishi, tartibga tushishi ham uzluksiz bo'ladi. Umuman, ona tilida atamalarning puxta ishlanishi, tartibga solinishi darslik va qo'llanmalar tuzish uchun ham, ona tilida dars olib borish uchun ham zarur bo'lgan manbadir. Atamalarning ishlanmaganligi va tartibga solinmaganligi nutq uslubiga ham ta'sir ko'rsatadi" [Абдураҳмонов, Мамажонов 2002, 84-85]. Demak, terminologiyaning tartibga solinishi nafaqat ilmiy sohada, balki ijtimoiy hayotda ham ahamiyati katta bo'lgan masaladir.

Terminologiyani tartibga solishning samaradorligi terminlar bevosita qo'llanadigan quyidagi holatlarda yaqqol ko'rindi: kasbiy ta'limni to'g'ri tashkil etishda, ishlab chiqarish amaliyotida bo'ladi-gan og'zaki muomalada, ilmiy va ishlab chiqarish jarayonlaridagi o'zaro yozishmalarda, matbaachilikda (ilmiy, o'quv, ishlab chiqarish kabilarga oid adabiyotlarni nashr etishda), chet el adabiyotlarini tarjima qilishda va hokazo.

Tilshunoslikda terminlarning o'zgarishi hamda yangi terminlarning paydo bo'lishi fan va texnika taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqidir. Bu haqda tilshunos olim L.I.Bojno quyidagilarni ta'kidlaydi: "Texnika taraqqiyoti ta'sirida terminologiya o'zaro aloqador ikki qonuniyat asosida, birinchidan, ilmiy-texnika progressiv qonuniyatları bilan, ikkinchidan, til rivojlanishining umumiyligi qonuniyatları bilan bog'liq ravishda o'zgarib boradi" [Божно 1971, 103]. Texnik malakaning endilikda ma'lum tor doiradan chiqib, ommaviy xarakterga ega bo'layotganligi va turli sohalarning mutaxassislari kundalik faoliyatida fan va texnika yutuqlaridan keng foydalanyotganligi terminlarga bo'lgan yuksak talab bilan uning hozirgi holati

orasidagi nomuvofiqlikni bartaraf etishni talab etadi. Chunki hayotda fan va texnika taraqqiyoti qanchalik katta ahamiyatga ega bo'lsa, uni egallash, boshqarish va taraqqiy ettirish uchun terminlar ham shunchalik muhim ahamiyatga molikdir. Shu jihatdan, terminlarni tartibga solish juda katta ilmiy va ijtimoiy ahamiyatga egadir.

Fan-texnikaning tez sur'atlar bilan rivojlanib borishi natijasida yangidan-yangi mashinalar, apparatlar, asbob-anjomlar va texnologik jarayonlarning paydo bo'lishi bilan ularni ifodalovchi yangi terminlar ham vujudga kelmoqda. Shu sababli, yangi texnika vositalari qaysi sohaga ko'proq kirib kelgan bo'lsa, shu soha terminologiyasi to'xtovsiz ravishda kengayib bormoqda. Ana shunday sohalardan biri bugungi kunda sanoatning kimyo sohasidir. Mazkur soha taraqqiyotiga e'tibor bersak, sohaga texnik vositalarning kirib kelishi, asosan, yigirmanchi asr boshlariga to'g'ri keladi. Lekin uning eng taraqqiy etgan davri bugungi kundagi holatidir. Hozirgi paytda jamiyat taraqqiyotini kimyo sanoatisiz tasavvur qilish qiyin bo'lgani bois kimyoviy jarayonlarini o'zida mujassam-lashtirgan va ularni amalga oshirishda texnik vositalar qo'llangan juda ko'plab yangi tushunchalar va ular bilan birga yangi ilmiy-texnikaviy terminlar ham kirib kelmoqda. Albatta, bunday o'zgarishlar o'zbek tilining ish ko'rish doirasini kengaytirib, uning leksik tarkibini yangi-yangi ilmiy va texnik terminlar bilan boyitdi.

Ko'pchilik hollarda yangi terminlar yaratish ishiga oddiy tarjima yoki kalkalash jarayoni sifatida qaraymiz. Masalan, Absorbsiya (lat.) termini o'zbekchada yutilish, singish ma'nolarida qo'llanilmoqda. O'TILda SHIMMOQ 1. Suyuqlik, havo va sh.k.lar ni ichiga yoki tarkibiga tortmoq, o'ziga singdirmoq. Paxta yog'ni shimib oldi. Ter, moy va changni yillarcha shimgan, jiyagi charmday qotib, kirdan yiltiragan bu do'ppini yana tozaladi, qoqdi, ko'zlariga surtib o'pdi [Oybek, Tanlangan asarlar].

2. ayn. so'rmoq 1. Qand shimmoq. O'roq. cho'ntagidan konfet olib, og'ziga tashlab shima boshladи. Y. Muqimimov, Matonatli kishilar. ... [O'TIL, IV, 573].

Ammo O'TILda yutilish so'zining izohi berilmagan. Nazarmizda, YUTILISH yoki YUTILMOQ so'ziga shunday ta'rif berish mumkin: Biror narsaning yo'q bo'lib ketishi, yoki hazm bo'lib ketishi ma'nosini ifodalaydi. Suvni yutmoq, yer yutmoq (yer qahriga tushmoq) va hokazo. Shimmoq esa biror suyuqlikning asta-sekinlik bilan tuproq yoki materialga shingib ketilishi natijasida boshqa holat tarkibiga o'tib ketishidir. Ko'rindaniki, yutilish jarayoni asosan quyuq moddalarga nisbatan qo'llanib, ancha tez bajariladi, singish sekin-

lik jarayoniga xos bo'lib, suyuq moddalarga tegishli bo'lgani uchun mazkur termin tarjimasini aynan singish shaklida berish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, trevog, xavotir, diller, rukoyatka singari terminlar haqida ham shunday fikr bidirish mumkin.

Terminologiyadagi mavjud kamchilik hamda tartibsizlik-larning asosiy sabablaridan biri ham shundadir. Zотан, yangi termin yaratish har taraflama mukammal bo'lgan ijodiy jarayondir. Har qanday ilmiy-texnikaviy termin oddiy so'zning yoki so'z birikmasining terminologiyadagi aksi bo'lib, u aniq chegaralangan hamda belgilangan mazmunga, bu mazmun esa, kontekstdan qat'iy nazar, faqat shu terminga oid bo'lishi lozim. Xususan, K.M.Musayev terminologiyani tilning leksikasi sifatida go'yo bir shaharga qiyoslaydi. Uning fikricha, terminologiya yagona reja asosida qurilsa-da, lekin birdaniga barpo etilmaydi. U tarixiy shart-sharoit asosida shakllanadi, uni yaratishda har xil avlodga mansub bo'lgan turli me'morlar, loyihibachilar, kashfiyotchilar ishtirot etadi. Ular har bir qurilayotgan inshootni yaxshi o'rgangan holda barpo etadilar. Terminologiyani tartibga solishdagi o'ziga xos murakkablik ham shu bilan belgilanadi [Mycaeb 1986, 163].

Ilmiy adabiyotlarda barcha tillardagi sohaviy terminologiyalar uchun umumiy bo'lgan quyidagi jiddiy kamchiliklari ko'rsatib o'tilgan: terminlarning ko'p ma'noliligi; terminlar sinonimiyasi; ma'lum bir tushunchani ifodalashga xizmat qiluvchi terminning anglatishi lozim bo'lgan tushuncha mohiyatiga uyg'un bo'lmasligi; terminning ko'p komponentlardan iborat bo'lishi va natijada, uni qo'llashdagi noqulaylik; termin talaffuzining noqulayligi (bunday terminlar ikki sababga ko'ra vujudga keladi:

1) asosiy terminni yaratishda uning derivatlilik imkoniyatlari yetarlicha inobatga olinmaydi;

2) xorijiy terminni o'zlashtirishda unga jiddiy e'tibor bilan qarab, tanqidiy yondoshilmaydi; terminologiyani keragidan ortiq miqdorda xorijiy terminlar bilan to'dirib tashlanishi; termin yaratilishida u anglatishi lozim bo'lgan tushuncha mohiyati bilan o'zaro batartiblik (sistemalilik)ning yetishmasligi kabilardir [Лотте 1961, 7-8].

To'g'ri, hech qanday til faqat o'z termin elementlari hisobiga terminologiyasini qura olmaydi. Til qurilishi jarayoni shuni ko'rsatadiki, dunyoda sof tilning o'zi umuman mavjud emas. Har doim boshqa tillardan termin o'zlashtirish jarayoni sodir bo'lib turadi, bu jarayondan chekinish mumkin emas. Ammo ehtiyoj sezilmagan holatlarda ham xorijiy terminlarni sun'iy ravishda tilga olib kirish

